

**ABOUT TOPONYMY AND GEOGRAPHY OF SACRED OBJECTS**

Koshkar Makhkamovich Khakimov
PhD in Geography
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan

Umriya A. Rakhimova
Master's student
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan
E-mail: hakimov_54@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: sacred object, geographical name, religious toponym, holy place, ideology, social, economic, political, linguistic factors.

Received: 23.09.23

Accepted: 25.09.23

Published: 27.09.23

Abstract: All the factors underlying the emergence, formation and regional distribution of the names of sacred objects were analyzed in this article, with the help of concrete examples. Names of sacred objects, like all toponyms, are considered an important component of national values. The spiritual world of the local people is reflected in sacred names that serve religious-ideological purposes. The wisdom, ingenuity of the people and the art of naming, which has improved over the centuries, are clearly visible in this type of names. Sacred objects and their names are important in satisfying the spiritual and spiritual needs of a person. Furthermore, they require a comparative study of the history, spirituality, social, economic, political, and linguistic factors that are the basis of naming, along with the events of that time, like other types of names of places.

SAKRAL OBYEKTLAR TOPONIMIYASI VA GEOGRAFIYASI HAQIDA

Koshkar Maxkamovich Xakimov
geografiya fanlari nomzodi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O'zbekiston

Umriya A. Raximova
Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

E-mail: hakimov_54@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: sakral obyekt, geografik nom, diniy toponim, muqaddas qadamjo, mafkura, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, lisoniy omillar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sakral obyektlar nomining paydo bo'lishi, shakllanishi va hududiy tarqalishiga asos bo'lgan barcha omillar, aniq misollar yordamida tahlil qilindi. Sakral ob'ektlar nomlari barcha toponimlar kabi milliy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Diniy-mafkuraviy maqsadlarga xizmat qiladigan sakral nomlarda mahalliy xalqning ma'naviy dunyosi o'z aksini topgan. Bu turdagi nomlarda xalqning donoligi, topqirligi va asrlar osha takomillashgan nomlash san'ati yaqqol sezilib turadi. Sakral ob'ektlar va ularning nomi insonning ruhiy-ma'naviy ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ular boshqa turdagi joy nomlari kabi o'z bag'rida yashirgan tarixni, ma'naviyatni, nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, lisoniy omillarni o'sha davr voqealigi bilan birga qiyosiy o'rganishni talab qiladi.

О ТОПОНИМИКЕ И ГЕОГРАФИИ СВЯЩЕННЫХ ОБЪЕКТОВ

Кошкар Махкамович Хакимов

Кандидат географических наук

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Умрия А. Рахимова

студент магистратуры

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

E-mail: hakimov_54@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сокральный объект, географическое название, религиозный топоним, святое место, идеология, социальные, экономические, политические, языковые факторы.

Аннотация: В данной статье на конкретных примерах проанализированы основные факторы возникновения, формирования и территориального распространения названий сокральных объектов. Названия священных объектов, как и все другие виды топонимы, считаются важной частью национальных ценностей каждого народа. В них отражены духовный мир местного населения и они служат религиозно-идеологическим целям. В сокральных названий отчетливо видна

мудрость, изобретательность народа и искусство именования, совершенствовавшееся в течение многих веков. Сакральные объекты и их названия имеют важное значение в удовлетворении духовных потребностей людей. Кроме того, как и другие типы топонимов они требуют сравнительного изучения ряда (исторический, духовный, социальный, политический, языковых и.т.д.) факторов лежащих в основе наименования вместе с событиями того времени.

KIRISH

Har qanday hududning joy nomlari o'sha hududdagi tabiiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan birga o'rganilishi maqsadga muvofiq. Chunki joy nomlarida tabiiy sharoit, tarix, til, madaniyat, tsivilizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy omillar aks etgan bo'ladi. Geografik nomlarga hududiylik xos, shuning uchun, ularning vujudga kelgan vaqti, qaysi tilga mansubligi, ma'no-mazmuni va tuzilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga, joy nomlari barqaror borliq bo'lib, juda uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin, ammo hamma nomlar ham davr sinovlariga bardosh berolmaydi, ulardan ayrimlari yo'qolib ketsa, boshqalari asrlar osha takomillashib sayqallanib, toponimik tizim talablariga moslashib saqlanib qolaveradi.

Tarixiylik maqomiga ega bo'lgan nomlarda geografik obyektning ixcham tarixi mujassam. Ko'pincha, joy nomlarining shakllanishi jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq va ular yaratgan xalq milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Har qanday hudud toponimiyasi tarkibida sakral obyektlar nomi ham uchraydi. Ular mintaqaholisining qadimiy urf-odatlarini, milliy qadriyatlari va etnomadaniy belgilari kabi qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan bo'ladi. Binobarin, sakral geografik va toponimik tadqiqotlarda ularni ilmiy etimologiyasini aniqlansa, tahlil samarali va ishonchli bo'ladi.

Hozirgacha respublika hududidagi sakral obyektlar nomlari va ularning toponimik tahlili tugal tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Binobarin, bu tur nomlar shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan turli omillarni toponimik qonuniyatlar asosida o'rganish, tahlil va tadqiq qilish muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Albatta, bu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Mazkur tadqiqot ishida toponimist olimlar H.Hasanov, S.Qoraev, T.Nafasov, M.Mirakmalov, Yu.Ahmadaliev, N.Oxunov, P.Otaqulov va boshqalar ilmiy ishlaridan foydalanildi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi mamlakatimiz hududidagi ayrim sakral obyektlar nomining kelib chiqishi, etimologiyasi, ularni nomlash va qayta nomlashga asos bo'lib xizmat qilgan turli siyosiy, etnik, lisoniy, ijtimoiy, iqtisodiy omillarni tahlil qilishdan

iborat. Ishda belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan: a) sakral obyektlar nomlarini mavjud toponimik qonuniyatlar asosida tahlil qilish; b) ularni nomlash va qayta nomlashga asos bo'lgan turli motivlarni qiyosiy o'rganish; v) xalqning ma'naviy dunyosini o'zida aks etganligi va diniy-mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilishini asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Barcha turdagi geografik obyektlar kabi, sakral (lotincha, sacre - "muqaddas, mo'`tabar, ilohiy") obyektlarga ham nom bejiz va besabab qo'yilmagan, ular o'tmish voqeligi sifatida aniq ma'no-mazmunga ega. Ma'lumki, yozma manbalarda qayd qilingan sakral nomlarning barchasi hozirgacha saqlanmagan. Saqlanganlari xalq tafakkurining nodir namunasi sifatida o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. [1] SHuning uchun, mamlakatimiz hududidagi barcha sakral obyektlar nomlari ham ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan va bizga ma'naviy-ma'rifiy meros qilib qoldirgan qimmatli boyluk sifatida har tamonlama tadqiq qilinish kerak.

Ma'lumki, sakral nomlar barcha dinlar toponimiyasi tarkibida uchraydi va inson tafakkurining mahsuli sifatida muayyan mafkuraviy maqsadlarga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, har bir davr, tuzum o'z g'oya va mafkurasiga tayangan holda sakral nomlar majmuasini yaratgan va ulardan diniy g'oyalarning targ'ibotchilari o'z maqsadlari yo'lida foydalanishgan. Xususan, o'tmishda sakral obyektlar va ularning nomlaridan foydalanib, e'tiqod qiluvchilarning psixologiyasi, dunyoqarashi va diniy hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, nasroniy va buddizm dinlariga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar toponimiyasida sakral nomlarning salmog'i ancha katta. Xususan, katolitsizm hukmron bo'lgan davlatlar toponimiyasida lisoniy jihatdan turli tillarga daxldor bo'lgan diniy toponimlarni ko'proq uchratish mumkin. Masalan, rus nomshunos olimi E.M.Murzaevning yozishicha, «Xorijiy mamlakatlar geografik nomlari lug'ati» kitobida tarkibida faqat san-, sant-, sankt-, santa-, sen-, sent-, ya'ni «muqaddas, ilohiy» qo'shimchalar bilan yasalgan toponimlar uchun o'n olti qator joy ajratilgan.[3]

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Angliya kabi davlatlar tomonidan yangi yerlarni zabt etish maqsadida tashkil etilgan ekspeditsiyalar tarkibida nasroniy rohiblar ham bo'lgan, ular tubjoy aholini cho'qintirib, diniy g'oyalarni singdirish maqsadida, yangi barpo etilgan aholi punktlariga xristian dinining aziz-avliyolari nomlarini berishgan. Ular orasida geograflar uchun yaxshi tanish bo'lgan San-Salvador, Santo-Domingo, San-Xose, San-Xuan, Santyago, San-Frantsisko, Sent-Luis, San-Paulu kabi shaharlar bor. Bu ro'yxatni yana ham davom ettirish mumkin, agar orol, qo'ltiq, ko'l, daryo, tog' va boshqa geografik obyektlarning nomlari ham qo'shilsa, ularning soni bir necha mingtani tashkil etishi aniq. Masalan, Muqaddas Lavrentiy, Muqaddas Yelena, Muqaddas Pavel, Muqaddas Ilya yoki

Santa-Krus (muqaddas salib), Santa-Fe (muqaddas e'tiqod) kabi sakral toponimlarni ham shular qatoriga kiritish mumkin.

Budda diniga sig'inadigan mamlakatlar toponimiyasida ham o'xshash holatni kuzatish mumkin. Masalan, Himolay tog'larida joylashgan, aholisi hozir ham Budda ahkomlariga qat'iy rioya qiladigan Mustang vodiysi nomi ham sakral nomlarga yaqqol misol bo'ladi. Mutaxassislarning yozishicha, vodiy nomiga asos bo'lgan smong-tan so'zi - «muqaddas, sajdagoh» ma'nosini ifodalaydi. Yer yuzidagi eng baland cho'qqi hisoblangan Jomolungma (8848 m.) nomi ham tibet tilida «muqaddas tog'», «ilohiy yer onasi» degan ma'nolarga ega. Yaponlar uchun muqaddas va davlat ramzi sanalgan Fudziyama tog'i nomining paydo bo'lishi ham ancha qiziq. Nomshunos olimlar uni turlicha sharhlagan bo'lsalar ham, ammo sakral toponimga asos bo'lgan yama so'zini yapon tilida «tog'» ma'nosi borligini barcha mutaxassislar ta'kidlashgan. Fudziyama - «ulug' tog'», «abadiy tog'», «olovli tog'» kabi ma'nolarga ega. [9]

Hayotining asosiy qismi tekislikda o'tadigan mo'g'ullarda tog'larga sig'inish odati bo'lgan. SHuning uchun, ular tog'lar nomiga ko'pincha, bogdo - «muqaddas», «ilohiy» so'zini qo'shib talaffuz qilishgan. Masalan, Bogdo-Ula, Ixe-Bogdo, Baga-Bogdo kabi oronimik obyektlar nomi shunday yaratilgan. Qadimda mo'g'ullar begonalar oldida tog'lar nomini baland ovozda talaffuz qilishmagan, oila a'zolari va chorvalariga qarg'ish tegadi, deb qo'rqishgan. SHunga o'xshash odat otashparastlikka e'tiqod qilgan qadimiy so'g'dlarda ham bo'lgan. So'g'dlar tog'larni buyuk mo'jiza, abadiylik va buyuklik ramzi sifatida ulug'lashgan hamda, tog'larda ilohiy kuch borligiga ishonishgan. So'g'dlar tog'ga chiqayotganda yo'l yoqasidagi toshlardan olib, ularni tog'dan oshayotgan joyda qalab ketishgan. Paydo bo'lgan tosh uyumlari qadimiy so'g'd tilida «sug'ch» deb atalgan va ko'pincha, dovondan o'tadigan joyda belgi vazifasini bajargan.

Islom davlatlari toponimiyasida ham sakral toponimlar ko'p uchraydi, ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ham turlicha. Sakral nomlarga Bog'dod - «Alloh in'om etgan joy» - Iroq poytaxti, Allohobod - (Alloh - «islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy kuch; xudoning nomi») - Hindustondagi yirik shahar, Islomobod - «islom shahri» - Pokiston Islom Respublikasi poytaxti misol bo'ladi.

Tabiiy geografik obyektlar nomi tarkibida ham sakral nomlar uchraydi. Masalan, hozirgi Tyanshan (xitoy tilida, tyan - «tangri», shan - «tog'») tog'ining nomini sakral nomlar qatoriga qo'shish mumkin. H.Hasanovning yozishicha, «mahalliy aholi O'rta Osiyo chegarasidagi bu tog'larni Tangritog' deb atagan. Tangri so'zini nafaqat xudo, balki muqaddas, ulug' degan ma'nolari ham bo'lgan. Bu tog'larni turli xalqlar muqaddas deb bilgan, ularning e'tiqodicha, bu tog'larda ilohiy kuchning makoni bo'lgan. Xitoylar qadimiy turkiy nom Tangritog'ni o'zlariga monand tarjima qilib, Tyanshan shaklini yasaganlar.»[7]

Ma'lumki, arablar O'rta Osiyoga islom dinini olib kelishi bilan birga, sakral toponimlarning shakllanishida ham faol ishtirok etganlar. Sakral obyektlar nomlari orasida ularni ulug'lovchi, ilohiylashtiruvchi, muqaddasligiga ishora qiluvchi "aziz", "ota", "bobo", "avliyo", "vali", "eshon", "xo'ja" kabi so'zlar ko'p uchraydi. Ularga Jizzax viloyati hududida joylashgan Xo'ja Bog'bon ota, Balogardon bobo, Sa'd ibn Vaqqos avliyo, Xo'ja Qahhor vali, Hazrati Eshon xalifa, Said Isoxo'ja kabi sakral obyektlar nomlari nomlari misol bo'ladi. [4] Hozirgi O'rta Osiyo hududidagi joy nomlari tarkibida mozor (arabcha - «ziyosat qiladigan joy, qadamjo») so'zi topoformant sifatida ko'p uchraydi. Masalan, So'fimozor, Muzorli, Qoramozor, Oqmozor, Muzorqo'rg'on, Muzorboshi kabi nomlar shu topoformant yordamida yaratilgan. Bundan tashqari, Xivadagi me'moriy yodgorlik, Afg'onistonning shimoliy qismidagi shahar, Tojikistonda bir necha qishloq Mozori-SHarif deb ataladi.

Professor Suyun Qoraevning yozishicha, O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi islom dini bilan bog'liq bo'lgan sakral toponimlarning negizini tashkil qiluvchi so'zlar ancha qadim davrda mahalliy xalqlar tiliga o'zlashgan va ular bevosita arablarning Movarounnahrni ko'p asrlik istilosi bilan bog'liq.[5] Sakral obyektlar nomi orasida payg'ambarlar, avliyolar va turli diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlarning ko'pchilikni tashkil qiladi. Buni Jizzax viloyati toponimiyasi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, aziz-avliyolarni qadamjolari (Sayidon, Xo'jamushkent, Parpiota) muqaddas oy va hafta kunlari nomlari (Ramazon, Juma), antroponimlar (Usmon, Haydar, Umar) aholi punktlari nomlari sifatida o'z aksini topgan.

Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida Avliyo nomli qishloq bor. Avliyo so'zining arab tilidagi ma'nosi xudoga yaqin odam. Islom an'anasida avliyolar qaysidir bir ishi, xizmati yoki xislati tufayli Allohga yaqin bo'lib qolgan, duolari mustajob, solih, qobil kamtar kishilardir. Qishloq nomi shu hududda joylashgan Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi bilan bevosita bog'liq. «Jizzax viloyati ziyoratgohlari» nomli kitob muallifi Og'a Burgutlining yozishicha, Sa'd ibn Abu Vaqqos arabistonlik sarkarda, hozirgi Avliyo qishlog'i yaqinida o'tgan bir jangda yaralangan, keyinchalik qoni to'kilgan joyda xonaqoh bunyod etilgan.[6]

Sakral nomlarga SHarof Rashidov tumanidagi Parpiota oykonimi ham misol bo'ladi. Suyun Qoraevning yozishicha, Parpi ota - jismoniy jihatdan nogiron bo'lgan (parpi kasalligiga yo'liqqan) kishilarni tuzatadigan avliyoning qadamjosi, muqaddas joy». Ziyoratgoh hududida sirli-sinoatli teshiktosh bor, emishki «gunohi borlarni poklar emish...».[5] Parpi degan dorivor o'tning nomi ham shu e'tiqod bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Ta'kidlash joizki, har qanday xalqning milliy qadriyatlarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan sakral nomlar o'tmishda son jihatdan ancha ko'p bo'lgan va hozir ham kam emas. SHuning uchun, ular yordamida turli tarixiy-etnografik mintaqalar tarixi, dinlarning tabiat ne'matlariga bo'lgan munosabati, muqaddas qadamjoylar, ziyoratgohlar va ularning diniy-ekologik funktsiyasini

aniqlash, noyob tabiat yodgorliklari hamda atrof-muhitni asrab-avaylash kabi masalalarni o'rganishda toponimik manba sifatida foydalansa bo'ladi. [8] Binobarin, nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, lisoniy omillarni o'sha davr voqealigi bilan birga qiyosiy o'rganish va ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Sakral obyektlar nomlarining paydo bo'lishi va nomlashga asos bo'lgan motivlar nomshunos olimlarning asarlari hamda ayrim ilmiy manbalar yordamida tahlil qilindi va quyidagi xulosalarni bayon qilishga asos bo'ldi:

- sakral obyektlar nomlari barcha turdagi toponimlar kabi milliy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi va diniy-mafkuraviy maqsadlarga xizmat qiladi;

- sakral toponimiyada nomlovchi xalqning ma'naviy dunyosi haqidagi aniq ma'lumotlar mujassam;

- sakral nomlar o'tmishda son jihatdan ancha ko'p bo'lgan, ular mahalliy xalqning ma'naviy dunyosining in'ikosi hisoblanadi;

- sakral obyektlarni nomlanishiga asos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, lisoniy omillarni o'sha davr voqealigi bilan birga qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiq;

- ularni o'rganish va ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э. Жой номлари - маънавият кўзгуси. -Т.; 1998. -67- б.
2. Миракмалов М.Т. Географияда топонимика. -Т.; 2011. -81 -б.
3. Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.; 1995. -225 -стр.
4. Офа Бургутли. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. -Т.; 2006. -92 -б.
5. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. -Т.: 2005. -238 -б.
6. Ҳакимов Қ.М. Жиззах вилояти топонимлари. -Жиззах. 2014. -204 -б.
7. Ҳасанов Ҳ. Танланган асарлар. -Т.; 2019. -335 -б.
8. Ahmadaliev Yu.I. Otaqulov P.S. Geografik o'lkashunoslik kurslarida toponimlardan foydalanish. -Farg'ona. 2022. -161-b.
9. Hakimov Q.M. Топонимика. -Т.; "Мумтоз сўз", 2016. -368 -б.
10. Zumarad, A., Nazira, T., & Feruza, S. (2022). FEATURES OF GROWTH OF FUNGI OF THE GENUS CANDIDA ON THE NUTRITIONAL BASIS OF RICE BRAN. *EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review (CRER)*, 10(3), 1-3.
11. Abidova, Z. K. (2017). Natural Places of Worship of Khwarezm, connected with Water Elements. *European Researcher. Series A*, (8-2), 48-57.
12. Аллаберганова, З. С., Самандарова, Б. С., & Болтаева, Ш. Р. (2019). Причины увеличения женщин с проблемой угрожающего выкидыша. *Авиценна*, (34), 10-11.

13. Абидова, З. (2023). HISTORICAL FORMATION AND ARCHITECTURAL STRUCTURE OF THE PILGRIMAGE PLACES OF THE KHORAZM OASIS. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 6(8).